

## VAKILLIK HOKIMIYATI – IJTIMOYIY BIRDAMLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTI

**Raxmonov Sherzod Tolibovich**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi kotibiyati mudiri*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola orqali vakillik hokimiyatining ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlashdagi o'rni falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda vakillik hokimiyatining asosiy funksiyalari, jumladan, kommunikatsiya, integratsiya, legitimatsiya, adolatni ta'minlash, ishtirokchilik va strategik vazifalari keng yoritilgan. Shuningdek, J. Habermas, Arastu va J. Roulz nazariyalari asosida demokratik jamiyatda qaror qabul qilish jarayonlarining muloqot va tenglik tamoyillariga asoslanishi asoslab berilgan. O'zbekiston misolida parlamentning ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari vakillik hokimiyatining nafaqat siyosiy institut, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi murakkab ijtimoiy-falsafiy mexanizm ekanligini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *vakillik hokimiyati, parlament, ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik, legitimlik, adolat, demokratiya, kommunikatsiya, fuqarolik jamiyati, siyosiy madaniyat, ishtirokchilik, integratsiya, globallashuv.*

## ПРЕДСТАВИТЕЛЬНАЯ ВЛАСТЬ КАК ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СОЛИДАРНОСТИ И СПЛОЧЁННОСТИ

**Рахмонов Шерзод Толибович**

*Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам*

*Руководитель секретариата*

*Совета народных депутатов Бухарской области*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируется роль представительной власти в обеспечении социальной солидарности и сплочённости с философской и социальной точек зрения. Рассматриваются основные функции представительной власти, включая коммуникационную, интегративную, легитимационную, участие граждан и стратегическую функцию. На основе теорий Ю. Хабермаса, Аристотеля и Дж. Ролза обосновывается важность*

равноправного диалога и справедливости в процессе принятия решений в демократическом обществе. На примере Узбекистана раскрывается значение парламента в обеспечении социальной стабильности и межнационального согласия. Результаты исследования показывают, что представительная власть является не только политическим институтом, но и сложным социально-философским механизмом развития общества.

**Ключевые слова:** представительная власть, парламент, социальная солидарность, легитимность, справедливость, демократия, коммуникация, гражданское общество, политическая культура, участие, интеграция, глобализация.

## REPRESENTATIVE POWER AS AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURING SOCIAL SOLIDARITY AND COHESION

**Rakhmonov Sherzod Tolibovich**

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

*Head of the Secretariat of the Bukhara Regional Council of People's Deputies*

### ABSTRACT

*This article analyzes the role of representative power in ensuring social solidarity and cohesion from philosophical and social perspectives. The study examines key functions of representative institutions, including communication, integration, legitimacy, justice, participation, and strategic governance. Drawing on the theories of Jürgen Habermas, Aristotle, and John Rawls, the paper highlights the importance of dialogue, equality, and fairness in democratic decision-making processes. Using the example of Uzbekistan, the article explores the significance of parliament in maintaining social stability and interethnic harmony. The findings demonstrate that representative power functions not only as a political institution but also as a complex socio-philosophical mechanism for sustainable societal development.*

**Keywords:** *representative power, parliament, social solidarity, legitimacy, justice, democracy, communication, civil society, political culture, participation, integration, globalization.*

### KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda parlament nazorati instituti izchil ravishda rivojlanib bormoqda. Deputatlik so'rovlari, parlament eshituvlari va hisobotlarni

ko‘rib chiqish orqali ijroiya hokimiyati faoliyati ustidan tizimli nazorat amalga oshiriladi. Bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga, korrupsiya va suiiste‘molchilik holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Vakillik hokimiyatining funksiyalari faqat institutsional doirada cheklanib qolmaydi, balki u keng ma‘noda ijtimoiy muloqot va kommunikatsiya funksiyasini ham bajaradi. Ya‘ni parlament va boshqa vakillik organlari jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va manfaatlar o‘rtasida muloqot maydonini yaratadi.

### **METODOLOGIYA**

Prezident Sh. Mirziyoyev “Har qanday jamiyat alohida insonlardan tashkil topadi. Adolatli va yetuk, komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin”[1:344], deb ta‘kidlagan.

Falsafada kommunikativ harakat nazariyasi doirasida Yurgen Habermas tomonidan chuqur tahlil qilingan. Uning fikriga ko‘ra, demokratik jamiyatda qarorlar erkin va teng huquqli muloqot jarayonida shakllanishi lozim. Aynan shu jihatdan, vakillik hokimiyati fuqarolarning ovozini eshitish, ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jamoatchilik muhokamalari, parlament eshituvlari va ochiq muloqotlar orqali aholi o‘z fikr va takliflarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa qarorlarning legitimligini oshiradi va jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi. Shuningdek, vakillik hokimiyatining integrativ funksiyasini ham alohida ta‘kidlash lozim. Bu funktsiya jamiyatdagi turli manfaatlar, qarashlar va ijtimoiy guruhlarini birlashtirish, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish va umumiy maqsadlar sari yo‘naltirishni nazarda tutadi. Falsafiy nuqtai nazardan bu jarayon ijtimoiy birlik va hamjihatlikni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lib, u jamiyat barqarorligining muhim sharti hisoblanadi. Ko‘p millatli jamiyatlarda vakillik hokimiyati turli etnik va madaniy guruhlar manfaatlarini hisobga olgan holda siyosat yuritishi zarur. O‘zbekiston misolida ham millatlararo totuvlikni ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va bu jarayonda parlament muhim rol o‘ynaydi. Turli millat vakillarining parlamentda ishtirok etishi ularning manfaatlari inobatga olinishiga xizmat qiladi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shu tariqa, vakillik hokimiyati funksiyalarining falsafiy talqini ularning ko‘p qirrali va murakkab tabiatga ega ekanligini ko‘rsatadi. U faqat qonun chiqarish yoki nazorat qilish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning ma‘naviy, siyosiy va ijtimoiy rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan muhim institut sifatida namoyon

bo'ladi. Vakillik hokimiyati funksiyalarining mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun uning aksiologik, ya'ni qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini ham tahlil qilish muhim hisoblanadi. Zero, har qanday hokimiyat instituti muayyan qadriyatlarga tayanadi va ularni amaliy hayotga tatbiq etish orqali o'zining ijtimoiy ahamiyatini namoyon qiladi. Shu ma'noda, vakillik hokimiyatining funksiyalari adolat, erkinlik, tenglik va javobgarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ro'yobga chiqarish mexanizmi sifatida ham qaralishi mumkin.

Adolat tushunchasi falsafada eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi va u Arastu davridan buyon turli jihatlarida talqin qilinib kelinadi. Arastu "adolatni taqsimlovchi (distributive) va tuzatuvchi (corrective/rectificatory) adolat"ga ajratgan bo'lsa, zamonaviy siyosiy falsafada Jon Roulz adolatni "teng imkoniyatlar (fair equality of opportunity) va adolatli taqsimot (difference principle)" tamoyili asosida izohlaydi[2].

Shu nuqtai nazardan, vakillik hokimiyati qabul qilayotgan qonunlar va qarorlar aynan shu adolat prinsiplariga mos kelishi lozim. Agar qonunlar muayyan guruh manfaatlarini himoya qilib, boshqalarni chetda qoldirsa, bu holat jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va noroziliklarni kuchaytiradi. Shuning uchun ham vakillik hokimiyatining funksiyalaridan biri sifatida adolatni ta'minlash funksiyasini alohida ko'rsatish mumkin. Bu funksiya orqali davlat resurslarini taqsimlash, ijtimoiy himoya choralarini belgilash va iqtisodiy siyosatni shakllantirish jarayonlarida tenglik va shaffoflik ta'minlanishi lozim. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlar ijtimoiy adolatni ta'minlashning amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

Bundan tashqari, vakillik hokimiyatining funksiyalari orasida legitimatsiya funksiyasi ham muhim o'rin tutadi. Legitimlik tushunchasi Maks Veber tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u hokimiyatning jamiyat tomonidan tan olinishi va qo'llab-quvvatlanishini anglatadi. Veber hokimiyat legitimligining an'anaviy, xarizmatik va huquqiy-ratsional turlarini ajratgan[3]. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda esa asosan huquqiy-ratsional legitimlik ustuvor hisoblanadi, ya'ni hokimiyat qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi va fuqarolar tomonidan qonuniy deb e'tirof etiladi. Vakillik hokimiyati aynan shu legitimlikni ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. Chunki u saylovlar orqali shakllanadi va xalq irodasining institutsional ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Agar saylov jarayonlari shaffof va adolatli o'tsa, vakillik organlariga bo'lgan ishonch ortadi va bu o'z navbatida butun davlat hokimiyatining legitimligini mustahkamlaydi. Aks holda esa, saylov tizimidagi kamchiliklar vakillik hokimiyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, vakillik hokimiyatining funksiyalarini tahlil qilishda uning prakseologik, ya'ni amaliy faoliyatga oid jihatlarini ham hisobga olish zarur. Bu yerda gap qabul qilingan qarorlarning qanday amalga oshirilishi, ularning samaradorligi va ijtimoiy natijalari haqida boradi. Chunki faqat qonun qabul qilish bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki uning ijrosi, ta'siri va natijalari ham muhim ahamiyatga ega. Agar parlament tomonidan iqtisodiy islohotlarga qaratilgan qonun qabul qilinsa, uning amaliy natijasi sifatida aholining turmush darajasi oshishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi yoki tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi kuzatilishi kerak. Agar bunday natijalar kuzatilmasa, demak, qonunning mazmuni yoki uni amalga oshirish mexanizmlarida muayyan kamchiliklar mavjud.

Vakillik hokimiyati o'z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borishi va zarur hollarda tegishli o'zgartishlar kiritishi lozim. Shuningdek, vakillik hokimiyatining innovatsion funksiyasini ham qayd etish mumkin. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar tez sur'atlarda kechayotgani sababli, davlat boshqaruvi tizimi ham doimiy ravishda yangilanib borishi talab etiladi.

Bu jarayonda vakillik hokimiyati yangi g'oyalar, islohotlar va innovatsion yondashuvlarni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish va ochiq ma'lumotlar siyosati kabi yo'nalishlarda qabul qilinayotgan qonunlar jamiyatni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida davlat boshqaruvining shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Vakillik hokimiyatining funksiyalari globallashtirish jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlash lozim. Zamonaviy dunyoda davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib borayotgani sababli, milliy parlamentlar ham xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etmoqda. Bu esa vakillik hokimiyatining tashqi siyosiy funksiyasini shakllantirmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va global muammolarni hal etishda ishtirok etish kabi vazifalar orqali vakillik hokimiyati davlatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlaydi. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, xavfsizlik va migratsiya kabi global muammolarni hal etishda parlamentlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Vakillik hokimiyati funksiyalarining falsafiy talqini uning nafaqat milliy, balki global miqyosdagi ahamiyatini ham ochib beradi. U jamiyatning ichki barqarorligini ta'minlash bilan birga, xalqaro munosabatlarda ham faol ishtirok etuvchi muhim institut sifatida namoyon bo'ladi. Vakillik hokimiyati funksiyalarining yana bir muhim jihati uning antropologik mazmuni bilan bog'liqdir. Chunki har qanday hokimiyat tizimi, eng avvalo, inson va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan qaralganda, vakillik hokimiyati insonning ijtimoiy tabiati, uning

muloqotga bo'lgan ehtiyoji va jamoaviy hayot kechirish xususiyatlarining institutsional ifodasi hisoblanadi. Aristotel insonni "ijtimoiy mavjudot" (zoon politikon) sifatida ta'riflar ekan, uning siyosiy hayotda ishtirok etishi tabiiy ehtiyoj ekanligini ta'kidlagan[4].

Shu ma'noda, vakillik hokimiyati fuqarolarning ana shu tabiiy ehtiyojini qondirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda vakillik hokimiyatining ishtirokchilik funksiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Demokratik jamiyatlarda fuqarolar nafaqat saylov orqali, balki turli jamoatchilik institutlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy muhokamalar orqali ham davlat boshqaruvida ishtirok etadilar. Vakillik hokimiyati esa ana shu ishtirokni tashkil etish, muvofiqlashtirish va institutsionallashtirish vazifasini bajaradi. Qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish amaliyoti fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonida bevosita ishtirokini ta'minlaydi.

Vakillik hokimiyatining ma'rifiy funksiyasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu funksiya jamiyatda huquqiy ong va siyosiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq. Chunki fuqarolar qanchalik huquqiy jihatdan bilimli va siyosiy jihatdan faol bo'lsa, vakillik hokimiyati shunchalik samarali faoliyat yuritadi. Bu jarayon o'zaro bog'liqlikka ega: bir tomondan, parlament faoliyatining ochiqligi va shaffofligi fuqarolarning ishonchini oshiradi, ikkinchi tomondan esa, fuqarolarning faolligi va talabchanligi vakillik organlarini yanada mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Ommaviy axborot vositalari orqali parlament faoliyatini yoritish, deputatlarning hisobot berishi va ochiq muloqotlar o'tkazilishi aholining siyosiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, vakillik hokimiyatining funksiyalari orasida mediativ funksiya ham muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda turli manfaatlar, qarashlar va pozitsiyalar mavjud bo'lib, ular ko'pincha o'zaro ziddiyatga kirishishi mumkin. Vakillik hokimiyati ana shu ziddiyatlarni hal etish, kompromiss topish va ijtimoiy kelishuvga erishish jarayonida vositachi sifatida ishtirok etadi. Falsafada bu jarayon konsensusga erishish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Yurgen Habermasning kommunikativ ratsionallik nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy kelishuv erkin va teng huquqli muloqot asosida shakllanishi lozim. Vakillik hokimiyati aynan shu muloqot maydonini ta'minlab, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish va kelishuvni rivojlantiradi. Parlamentda turli siyosiy partiyalar vakillarining ishtirok etishi qarorlarning muvozanatli va har tomonlama o'ylangan holda qabul qilinishiga xizmat qiladi. Shuningdek, vakillik hokimiyatining strategik funksiyasini ham qayd etish

lozim. Bu funksiya jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, strategik maqsadlar va ustuvor vazifalarni aniqlash bilan bog‘liq. Bu yerda gap faqat kundalik muammolarni hal etish haqida emas, balki jamiyatning kelajakdagi taraqqiyot modelini shakllantirish haqida boradi.

Milliy taraqqiyot strategiyalarini qabul qilish, iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarda uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish vakillik hokimiyatining strategik funksiyasi doirasiga kiradi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qabul qilingan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” ana shu funksiyaning amaliy ifodasi hisoblanadi. Vakillik hokimiyatining funksiyalari transformatsiya jarayonlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy jamiyatda davlat boshqaruvi tizimi doimiy o‘zgarish va yangilanish jarayonida bo‘lib, bu jarayon vakillik hokimiyatining mazmuni va funksiyalariga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, raqamlashtirish, globallashtirish va axborot jamiyati shakllanishi sharoitida vakillik hokimiyatining an‘anaviy funksiyalari yangi mazmun bilan boyib bormoqda.

### XULOSA

Elektron parlament tizimlarining joriy etilishi deputatlik faoliyatini yanada samarali va shaffof qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, onlayn platformalar orqali fuqarolarning fikr va takliflarini yig‘ish amaliyoti vakillik hokimiyatining ishtirokchilik va kommunikatsiya funksiyalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Vakillik hokimiyati funksiyalarining falsafiy talqini ularning dinamik va o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. U jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va texnologik o‘zgarishlarga moslashib, doimiy ravishda takomillashib boradi. Vakillik hokimiyati nafaqat davlat boshqaruvining muhim instituti, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi, inson manfaatlarini himoya qiluvchi va ijtimoiy adolatni qaror toptiruvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. 2023, 464 b.
2. RAWLS, J. (1971). *A Theory of Justice: Original Edition*. Harvard University Press. <https://doi.org/10.2307/j.ctvjf9z6v>
3. WEBER, M. (2019). *Economy and Society: A New Translation* (K. TRIBE, Ed.). Harvard University Press. <http://www.jstor.org/stable/j.ctv24trdzh>
4. Аристотель. *Никомахова этика*. М: “Мысль”, 1983. Электронная библиотека «Гражданское общество». URL: <http://www.civisbook.ru/>